



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA OT LUG'AVIY BIRLIKLARINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ORQALI TARQALISHI

Saidova Xurshida Faxriddin qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek tilida ot lug'aviy birliklarining ommaviy axborot vositalari orqali tarqalishi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. OAVning til tizimiga, xususan leksik qatlama ko'rsatgan ta'siri, yangi otlarning shakllanishi, ommalashuvi va normativlashuv jarayoni yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, texnik va madaniy sohalarda keng qo'llanayotgan o'zlashma va neologik ot birliklarining kommunikativ muhitda faollashuvi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Maqola zamonaviy leksikologiya tamoyillari asosida yozilgan bo'lib, til taraqqiyotida OAVning o'rnini ko'rsatib beradi.

Kalit so'z. zamonaviy tilshunoslik, leksik tizim, ot lug'aviy birliklari, ommaviy axborot vositalari, neologizmlar, o'zlashma so'zlar, til taraqqiyoti, sotsiolingvistika, internet tili, OAV tili, ommalashuv.

Аннотация. В данной статье анализируется распространение именных лексических единиц узбекского языка через средства массовой информации с точки зрения современной лингвистической теории. Освещается влияние СМИ на языковую систему, в частности на лексический слой, а также процесс формирования, популяризации и нормативизации новых существительных. Кроме того, рассматривается активизация заимствованных и неологических существительных в социально-политической, технической и культурной сферах коммуникации. Статья написана на основе принципов современной лексикологии и демонстрирует роль СМИ в развитии языка.

Ключевые слова: современное языкознание, лексическая система, именные лексические единицы, средства массовой информации, неологизмы, заимствованные слова, развитие языка, социолингвистика, интернет-язык, язык СМИ, популяризация.

Annotation. This article analyzes the dissemination of nominal lexical units in the Uzbek language through mass media from the perspective of modern linguistic theory. It highlights the impact of mass media on the language system, particularly the lexical layer, as well as the processes of formation, popularization, and standardization of new nouns. In addition, it examines the activation of borrowed and neological nouns in socio-political, technical, and cultural communication spheres. The article is based on the principles of modern lexicology and demonstrates the role of mass media in language development.

Keywords: modern linguistics, lexical system, nominal lexical units, mass media, neologisms, borrowed words, language development, sociolinguistics, internet language, media language, popularization.

Til – bu millatning eng muhim belgisi, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. Har qanday tilning boyligi va imkoniyatlari uning lug'at tarkibi orqali namoyon bo'ladi. Lug'aviy birliklar, ayniqsa ot so'z turkumi, tilning asosiy qatlami hisoblanadi. Chunki otlar yordamida inson atrofidagi predmet, hodisa va tushunchalarni nomlaydi, fikrini aniq ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslik nafaqat tilning ichki tizimini, balki uning ijtimoiy faoliyatdagi rolini ham chuqur o'rganadi.[4] Hozirgi globallashuv sharoitida til faqat aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari til tizimining shakllanishi, yangilanishi va rivojlanishida kuchli omilga aylangan. Tilning leksik tizimi, xususan ot so'z turkumi, jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Ommaviy axborot vositalari orqali yangi tushunchalar, g'oyalar, texnik atamalar va ijtimoiy hodisalarni ifodalovchi ot lug'aviy birliklar keng tarqalmoqda. Bu jarayon zamonaviy tilshunoslik nazariyasi (leksikologiya, sotsiolingvistika) va amaliyoti (OAV tili, nutq madaniyati) bilan bevosita bog'liq.

Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli jurnalistika orqali yangi ot birliklari nafaqat tez tarqaladi, balki xalq tomonidan yaratiladi ham. Masalan, “blogger”, “vlog”, “trend”, “kontent”, “hashtag” kabi birliklar dastlab ingliz tilidan kirgan bo’lsa-da, o’zbek tilida faol ishlatilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida til taraqqiyotida ommaviy axborot vositalari (OAV) — ya’ni televideniye, radio, matbuot va internet platformalarining roli nihoyatda katta. OAV orqali yangi tushunchalar keng ommaga yetkaziladi, tilga kirib kelayotgan yangi so’zlar ommalashadi, leksik birliklar faol qo’llanadi va mustahkamlanadi. Xususan, ot lug’aviy birliklarining ommaviy axborot vositalari orqali tarqalishi til taraqqiyotida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining til taraqqiyotidagi roli juda muhim hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda OAV faqat axborot yetkazuvchi vosita bo’libgina qolmay, balki til tizimini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida ham maydonga chiqmoqda. Yangiliklar dasturlari, turli xil tahliliy ko’rsatuvlar, maqolalar va internet ijtimoiy tarmoqlari orqali turli sohalarga oid yangi otlar, atamalar keng ommaga tarqatiladi. Masalan, “blogger”, “grant”, “brifing”, “onlayn platforma”, “dizayn”, “podkast”, “brend”, “tahlil markazi” kabi ko’plab otlar OAV orqali ommalashgan. Ommaviy axborot vositalari tilga kirgan neologizmlarning tezkor tarqalishini ta’minlaydi. Ayni vaqtda ularning talaffuzi, yozilishi va qo’llanishi ham xalq tilida mustahkamlanib boradi.

Ot lug’aviy birliklarining ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelish manbalari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Xalqaro so’zlar: rus tili, ingliz tili va boshqa xorijiy tillar orqali o’zlashgan so’zlar (masalan: “internet”, “kompyuter”, “server”, “lider”, “marketing”, “fayl”, “portal” va boshqalar.); axborot-texnologiyaga taraqqiyoti bilan bog’liq yangi so’zlar (“drone”, “robot”, “sensor”, “skaner”, “test-markaz” kabi otlar.); jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi hodisa va tushunchalar uchun yaratilgan so’zlar (masalan, “yoshlar markazi”, “yagona portal”, “xalq qabulxonasi” kabi nomlar). Bu birliklar dastlab OAVda qo’llanib, so’ngra keng jamoatchilik nutqiga o’tadi.

Hozirgi davrda axborot oqimi kengligi sababli otlar til tizimida tez va keng tarqalmoqda. Sohalarda kesimida tahlil qilinsa, har bir sohada yangi-yangi so’zlar talaygina. [3] Bugungi kunda taraqqiy etgan sohalardan biri *ijtimoiy-siyosiy sohada*: “parlament”, “sessiya”, “fraksiya”, “delegatsiya”, “platforma” kabi neologik otlar yuzaga keldi. *Texnologiya sohasida*: smartfon, “planshet”, “server”, “parol”, “login” kabi so’zlar kirib keldi. *Madaniyat va san’at sohasida*: “shou”, “konsert”, “festival”, “media olami” kabi so’zlar lug’at boyligini kengaytirdi.

Zamonaviy tilshunoslikda OAV juda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, yangi birliklarni keng tarqatadi. Ikkinchidan, talaffuz va yozuv me’yorlarini ommaga singdiradi. Uchinchidan, murakkab va tushunarsiz terminlar nutqqa moslashtiriladi. To’rtinchidan, adabiy til me’yorlarini targ’ib etadi. OAVda yangi-yangi so’zlarning ko’p marotaba takrorlanishi ularni xalqimiz nutqida tabiiylashuviga sabab bo’ladi. Har qanday yangi ot dastlab chet tiliga mansub yoki termin sifatida kirib keladi. Neologizmlarning tilda bot-bot takrorlanishi va OAV orqali ular oddiy so’zlashuv muhitga kirib ketadi. Neologik lug’aviy birliklar quyidagi bosqichlardan o’tadi: tilda paydo bo’lishi, ijtimoiy tarmoqlar, OAV orqali keng tarqalishi; ommalashish natijasida lug’atlar, rasmiy hujjatlar va o’quv adabiyotlarda kiritilishi va xalq nutqida faol qo’llanuvchi lug’aviy birlik bo’lib mustahkam o’rnashadi. Masalan, “onlayn”, “media”, “brifing”, “trend”, “mobil ilova” kabi so’zlar ana shu jarayonlarni bosib o’tgan. OAV nafaqat mavjud otlarni targ’ib qiladi, balki yangi nomlash jarayoniga ham turtki beradi. Ko’plab tashkilot, loyiha va hodisalarga nom berishda OAVning roli beqiyosdir. Masalan: “Yangi O’zbekiston”, “Raqamli makon”, “Ochiq byudjet”, “Yoshlar forumi” kabi ot birliklari dastlab ommaviy axborot vositalarida yangraydi va keyinchalik jamiyat tilida faol ishlatiladi. Shuningdek, internet jurnalistikasi, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar ham otlarning tezkor tarqalishida muhim o’rin egallaydi.

Xulosa qilib, o’zbek tilida ot lug’aviy birliklarining boyib borishi, yangilanishi va zamon bilan hamnafas bo’lib turishida ommaviy axborot vositalarining roli nihoyatda muhimdir. OAV

yangi tushunchalarni jamiyatga tez yetkazadi, ularni xalq og'zaki nutqiga olib kiradi va normativlashuv jarayonini tezlashtiradi. Zamonaviy tilshunoslik tilning o'zgaruvchanligini, jamiyat bilan uzviy bog'liqligini chuqur tahlil qiladi. OAV esa bu jarayonda ot lug'aviy birliklarining eng asosiy tarqatuvchisi va normativlashtiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. OAV orqali yangi otlar tezda kiradi, ommalashadi va tilda barqarorlik kasb etadi. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslik nazariyasi va amaliyotida OAVning leksik tizimga ta'siri, ayniqsa ot so'z turkumiga ta'siri – muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Bu jarayon tilning zamon bilan hamnafas rivojlanishini, milliy tilning global axborot makonida faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy tilshunoslikda OAVning leksik tizimga, xususan ot so'z turkumiga ko'rsatgan ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayon tilning boyib borishiga, uning zamon talablari bilan uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
3. Saidova Kh.F. On the Development of Socio-Political Vocabulary of The Uzbek Language in the Following Years
4. Тўрахўжаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз...дис. автореф. –Андижон, 2012.
5. Tilshunoslikka oid ilmiy maqolalar va OAV materiallari.
6. O'zbekiston Respublikasi Axborot agentligi rasmiy sayti.
7. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. – Тошкент, 2006-2008 у
9. <https://www.ziyounet.uz>